



**ZARDUSHTIYLIK BILAN BOG‘LIQ IBODAT
MAROSIMLARNING AVESTODA AKS ETISHI**

Xaitov Nazirbek

Abdurasulov Xurshid

ShDPI Tarix yo‘nalishi 1-kurs 1-24 guruh Talabalari

Abstract: In this article, the Holy Book of Zoroastrianism, “Avesto”, as well as the comments on the education advanced in it, their introduction to the youth of the present time, were discussed.

Key word: Zoroastrian, ”Avesto” work, education, Zoroastrianism, unsur, law-rule, humanity, maturation.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” hamda unda ilgari surilgan g‘oyalarga doir fikr-mulohazalar, ularni hozirgi zamonga tadbqiqilish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Zardusht, “Avesto” asari, ta’lim-tarbiya, zardushtiylik, unsur, qonun-qoida, insoniylik, kamolot

Аннотация: В этой статье рассказывается о священной книге зороастрийской религии “Авеста”, а также об обратной связи по образованию, которое в ней продвигается, применяя ее к современной молодежи.

Ключевые слова: Зороастризм, произведение "Авеста", воспитание, зороастризм, стихия, закон-правило, человечность, зрелость

KIRISH. “Avesto” - Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi. Zardushtiylik dini haqida aytib o‘tadigan bo‘lsak, dinga uning asoschisi Zardushtning nomi



berilganligi uchun “Zardushtiylik” deya atalgan. Zardusht dinida asosan dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bu xislatlar yillar va asrlar davomida bir biriga qarshi kurashib kelmoqda. Insonning qaysi yo‘ldan ketishi o‘ziga bog‘liq. Bu ikki xislatni ajrata olishda, oq va qorani tanishda ko‘p narsani ko‘rgan hayoti davomida boshidan kechgan bo‘lishi va o‘ziga kerakli oqilona yo‘lni tanlagan bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham ikki xislatdan birini tanlashda iymon, vijdonini kuchli qilish zarur – degan o‘y - go‘yalar ilgari surilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maqolani tuzishda “Avesto Yasht kitobi” asaridan foydalanildi. Kitobda avesto kitobining yasht qismi haqida ma’lumot to’liq ilmiy izoxliy tarzida berilgan bundan tashqari Авесто. «САНЪАТ» kitobida ham avesto kitobida keltirilgan diniy targ‘ibod asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g‘oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma’rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. « Avesto » diniy xarakterga ega bo‘lish bilan birga, o‘zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. «Avesto» o‘lkamizda islomga qadar amal kilgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. Zardushtiylik dini esa tarixda birinchi ilohii vahiy orqali kelgan, deb hisoblanadi. Zardushtiylik tarixining yozma manbalarida aytilishicha, hudo Ahura Mazda uzining yaratuvchi, holiq, yakkayu yagona hudo ekanini imonli zot Zarathushtraga bildirib, uni payg‘ambar etib odamlar orasidan tanlagan. Zarathushtra aslida qadimda Daitiya — Amudaryo bo‘ylarida yashagan Spitaman urug‘idan bo‘lib, uning urug‘idagilar boshqa hudolar qatori Ahura Mazdaga ham etiqod qilishgan. Birgina Zarathushtra ular orasida boshqa hudolarga ishonchsiz bulgan. Ahura Mazdani esa o‘zi uchun chin hudo deb bilgan. Uning imon-etikodi qalb ko‘zi ochila borgani sari Ahura Mazdadan o‘zga mabudlardan voz kecha boradi. Nihoyat, Zarathushtra, Ahura Mazdaning nazariga tushib uning, Payromi (xush habari)ni o‘z urug‘i orasida odamlarga bildirishga ilohiy vakolat oladi. Zardusht eramizdan avvalgi VI asrda yashagan. Xorazmda xududida



yashagan chorvadorlar oilasi Spitaman urug'idan bo'lgan. Otasi Paurushasp, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug'ullanganlar. Zardusht ko'p xudolikka sig'inish hamda ko'plab qurbonliklar qilinishi natijasida mollar qirilib ketayotganligi, shuningdek, turli qabilalar o'rtasida nizolar kelib chiqayotganligini ko'rib, uning oldini olish choralarini izlaydi va ana shu maqsadda o'z ta'limotini targ'ib qila boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta'limoti va unda ilgari surilgan g'oyalar yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vahiy orqali ko'pxudolikka qarshi yakkaxudolikni targ'ib qila boshlaydi, kuchli hokimiyat o'rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani ximoya qiladi. Zardushtning yangi ta'limotini qabila a'zolari orasida targ'ib qilishini istamagan qabila boshliqlari uni ta'qib etadilar. Ana shu ta'qib tufayli u Ray (Eron)ga qochadi va o'z dinini o'sha yerda to'laonli shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. "Avesto"ni shoh Vishtasp (Gushtasp)ga taqdim etadi. Shoh Vishtasp uning homiysiga aylanadi. Vishtaspning farmoniga binoan otashxona - ibodatxonalar qurdiriladi, zardushtiylik dinining g'oyalari keng yoyila boshlaydi. Zardusht shoh Gushtasp vazirining qizi- Havoviga uylangani, undan uch o'g'il - Istavatra, Urvatatnara, Xvarachitra va uch qiz - Freni, Triti, Pourichistalarni ko'rganligini qayd etadi. 1 Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat "Avesto" oltin taxtga yozdirilib, shoh otashkadasiga topshiriladi. "Avesto"ning kitob holidagi matni eramizdan oldin o'n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Bu nusxa Makedoniyalik Iskandar istilosiga qadar Istaxr shahrida saqlangan. Iskandar Istaxrni bosib olgach, "Avesto" kitobida bayon etilgan tibbiyot, nujum ilmi hikmat sohalariga oid g'oyalarni yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan fikrlar bitilgan sahifalar yoqib yuboriladi. Zardushtning mazkur kitobi bizga qadar ikki nusxada yetib kelgan. Mazkur nusxalarning birinchisi - duolar to'plamidan iborat bo'lib, "Vendidat-sede", ya'ni "Pok Vendidat" deb ataladi. Ushbu kitobga "Yasna" va "Vispered"lar kiritilgan. Ikkinchi kitobda ham birinchi kitobdagi kabi "Vendidat", "Yasna" va "Vispered"lar o'rin olib, unda sharhlar ham beriladi. Izohli tarjima "Zand" (sharq ma'nosida) deb ataladi. Shuning uchun ham asarning sharhli nusxasi "Avesto va Zand" yoki



“Zand Avesto” deb nomlangan. Ikkinchi variantiga binoan “Avesto” asari quyidagi qismlardan tashkil topgan: 1. “Vendidat”. Mazkur qism 22 bobdan iborat bo’lib, asosan, Axura Mazda bilan Zardushtning o’rtasida kechgan savol-javob shaklida yozilgan. U yomon ruhlarni, devlarni yengish voqealari, gunohlardan pok bo’lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o’z ichiga oladi. Xarakterli jihati so’z yuritilayotgan qismda devlarga qarshi yaratilgan qonun matni, ya’ni, qonunnoma mazmuni yoritilgan. qonunnomada aytilishicha, yomonlik timsoli bo’lgan devlarga nisbatan nafrat bilan qarash darkor. Axura Mazda yurtda yaxshilik, xayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anqra Manu (Axriman) o’z yurtida yomonlikni qaror toptiradi. 2. “Vispered”. U 24 bobdan iborat bo’lib, ibodat qo’shiqlarini o’z ichiga oladi. 3. “Yasna”. Yasnalar 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlarni o’tkazish chog’ida, shuningdek, qurbonlik chiqarish marosimida aytiladigan qo’shiqlar, xudolarga bag’ishlangan madhiyalar va boshqalar yasnalarni tashkil etgan. Ushbu qismning 17 - bobi Gotlar deb yuritiladi. Gotlar “Avesto”ning eng qadimgi qismlari sanaladi. 4. Yashtlar. Yashtlar zardushtiylik dinining xudolari va ma’budalari sharafiga aytilgan 22 qo’shiq (gimn) larni o’z ichiga oladi. 5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). Quyosh, Oy, Ardvisura, Mitra, olov va boshqa xudo hamda ma’budalar sharafiga bag’ishlangan kichik ibodat (gimn) matnlaridan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo’lib yetishishida uning so’zi, fikri hamda ishi ezgu bo’lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e’tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g’oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma’rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo’lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma’naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo’lgan muayyan talablar o’z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G’arb xalqlarining ham muhim ma’naviy merosi bo’lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht



g'oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmatini bugungi kunda ham yuqori bo'lishiga olib kelgan. Biz har sohani o'rganishdan oldin tarixga yuzlanamiz, bizning tariximiz haqida so'zlovchi eng qadimiy manbaa bu Avesto hisoblanganligi sababli ham uni o'rganib tahlil qilish ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авесто. Избранные гимны. Пер. В.А, Лившица. – Душанбе: Ирфон, 1990. 3-bet
2. Авесто. «Санъат». 1991. - № 5-12, 1992. - № 1. 3-bet
3. Авесто «Гулистон», 1999. - № 1-5.
4. БОҲОДИР ЭШОВ “ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТЧИЛИГИ ВА БОШҚАРУВИ ТАРИХИ” Тошкент – 2012
5. MirsoDiq Isxoqov “Avesto Yasht kitobi” sharq nashriyoti Toshkent 2001
6. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
7. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
9. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
10. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.



11. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
12. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
13. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
14. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
16. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
17. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.